

TA'LIM OLUVCHILARDA ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH

Raxmonov Yaxshimurod O'ktamjon o'g'li

Qorako'l pedagogika texnikumi

Maxsus fan o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18787259>

Shaxsda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uzoq muddatli jarayon. **Dunyoqarash** tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda inson faoliyati mazmuning rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimi.

Ma'lum fanlarni o'zlashtirgan ta'lim oluvchilarda ilmiy bilimlar va tushunchalar shakllanadi. Anashu tushuncha, bilimlar shaxsda ilmiy dunyoqarashning shakllanishiga yordam beradi.

Ilmiy dunyoqarashning shakllanishi uchun ta'lim oluvchilarda o'zi bajarayotgan ishga ma'suliyatni anglashi, o'z ustida ishlashi va o'z-o'zini tarbiyalashi zarur.

Inson shaxsida dunyoqarash mohiyatiga ko'ra ikki xil. Ilmiy dunyoqarash va oddiy dunyoqarashlarga bo'linadi. Ilmiy dunyoqarash ma'lum bir falsafiy asosga ega dunyoqarash hisoblanadi.

Oddiy dunyoqarash falsafiy tizimga ega bo'lmagani bilan farqlanadi. Ilmiy dunyoqarash shakllanishi uchun ta'lim oluvchi fan asoslarini izchil, tartibli o'rganishi shu bilan birga puxta o'zlashtirishi talab qilinadi.

Dunyoqarashning boyib borishi uchun shaxsning sifatlari, faoliyatga munosabati va o'z ustida tinimsiz mehnat qilishi yordam beradi.

Agar ta'lim oluvchilarda yetarli darjada ilmiy dunyoqarash shakllangan bo'lsa innovatsion g'oyalar va ideal fikrlar namoyon bo'la boshlaydi.

Ta'lim oluvchilarda ilmiy dunyoqarashning shakllanishi uchun barcha fanlarni ya'ni o'qitilayotgan fanlarni o'zlashtirsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ta'lim jarayoni tarbiya bilan o'zaro bir-biriga bog'langan. Ta'lim oluvchilarga aqliy tarbiya berish, ilmiy dunyoqarashning shakllanishi uchun asos bo'ladi desak xato bo'lamaydi.

Aqliy tarbiya ta'lim oluvchiga tabiat va jamiyat to'g'risida bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyatini, tafakkurini shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyat bo'lib, uni samarali yo'lga qo'yish orqali dunyoqarash shakllanadi.

Aql nima degan savol paydo bo'ladi? Aql bevosita sezish va idrok etishdan boshlanib barcha bilish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Aqliy tarbiya ta'lim oluvchilarga ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish yangiliklari bilan tanishtirish, hamda mustaqil, ijodiy fikrlashga yordam beradi.

Aqliy tarbiya jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

1. Ta'lim oluvchilarga ilmiy bilimlar berish;
2. Ularda bilimlarni o'zlashtirishga ongli munosabatni shakllantirish;
3. Mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
4. Bilimlarni doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg'usini shakllantirish;
5. Ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur yuritish, o'z fikrini asoslash, mavjum

ma'lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosa chiqarish va hokozolar)ni rivojlantirish.

Aqliy ta'lim va tarbiya birligi asosida ta'lim oluvchida tafakkur (ijtimoiy voqea hodisalarni ongda to'laonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli) rivojlanadi.

Manbalarning ko'rsatishicha aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qadar murakkab bo'lib, quyidagi belgilarga ko'ra aniqlanishi mumkin:

1. Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi;
2. Mavjud ilmiy bilimlarni o'zlashtirib olish jarayoni;
3. Fikrlash ko'nikmasiga egalik;
4. Bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqish hamda ehtiyojning yuzaga kelganligi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki ta'lim oluvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning o'zaro hamkorligi juda muhim sanaladi.

O'qituvchida yetarli darajada bilim, ko'nikma va malakalar shakllangan bo'lishi darkor.

O'qituvchida yetarli darajada kasbiy kompetentligi yuqori bo'lsa ta'lim oluvchilarda bilimlarni shakllanishiga katta yordam beradi.

Agarda o'qituvchi yetarli darajada pedagogik va psixologik jihatdan kasbiy faoliyatdan toyyor bo'lsa ta'lim o'z maqsadiga erishadi. Shu bilan birgalikda ta'lim oluvchining munosabati ham muhim sanaladi.

Ta'lim oluvchining munosabati yaxshi bo'lmasa ilm-fan asoslarini o'zlashtira olmaydi.

Ta'lim oluvchining munosabati ham ilmiy dunyoqarashning shakllanishida katta ta'sir ko'rsatadi, xoh ijobiy, xoh salbiy bo'lishi ham mumkin.